

KITOB O‘QISH HALI HAM DOLZARBMI ?

Abduraximov Ilyosbek Sherali o‘g‘li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalar taraqqiy etgan davrda kitob mutolasining dolzarbligi tahlil qilingan. Kitob mutolaasi inson tafakkurini rivojlantirishi, nutq madaniyatini oshirishi va ma’naviy kamolotga yetkazishga yordam berardi. Shuningdek, raqamli axborot manbalari va internetning keng tarqalishiga qaramay, kitob mutolasining o‘rnini bosolmasligi asoslangan holda tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: kitob mutolaasi, ta’lim, tafakkur, bilim, innovatsion yondashuv, texnologiyalar, zamonaviy axborot manbalari, yosh avlod, ma’naviy rivojlanish, kreativ fikrlash.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kitoblar va audiomateriallar axborot olishning yangi usullar bo‘lib qoldi. Bugungi kunda bir necha soniya ichida istalgan ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Shu sababli ko‘pchilik an’anaviy kitob o‘qish o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda deb hisoblaydi. Biroq, mutolaa inson tafakkuri, nutqi, ijodiy fikrlash qobiliyati va ma’naviy kamoloti uchun bebaho manba bo‘lib qolmoqda.

Kitob – bu insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Kitoblarni misoli kemaga qiyoslash mumkin. U asrlar davomida bilim va tajriba avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Tarix guvohlik beradiki, qaysi jamiyatda mutolaa madaniyati rivojlangan bo‘lsa, o‘sha xalq taraqqiyot cho‘qqilariga erishgan. Buyuk allomalar, olimlar va ijodkorlar ham kitob o‘qish orqali tafakkurlarini kengaytirib, yangiliklar yaratgan. Xususan, Sharq va G‘arb uyg‘onish davrlarini tahlil qilsak, ularning rivojlanishida kitoblarning o‘rni beqiyos bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi juda kuchli bo‘lib, inson kun davomida minglab xabarlar va turli vizual kontentlar bilan to‘qnash keladi. Ko‘p hollarda bu axborotlar yuzaki bo‘lib, chuqur fikrlashga undamaydi. Kitob o‘qish esa insonni ma’lumotni chuqur tahlil qilish, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarishga o‘rgatadi va tasavurni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, bosma kitoblar orqali o‘qigan ma’lumotlar inson xotirasida uzoq saqlanadi.

Bundan tashqari, kitob o‘qish inson ruhiyati uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Olimlarning aytishicha, 21-asirning vabosi – bu stress. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish stress darajasini kamaytiradi, fikrlashni aniqlashtiradi va insonni ichki tinchlikka yetaklaydi. Mutolaa jarayonida inson o‘zini rivojlantiradi, empatiya hissini oshiradi va dunyoqarashini kengaytiradi. Empatiya bu – odamlarni his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdard bo‘lish qobiliyatidir. Badiiy asarlarda yozuvchi

qahramonlarning ichki tuyg‘ularini ham tasvirlab o‘tadi. Shaytanatni o‘qing. Asadbek bo‘lib ko‘rasiz, chuvrindi bo‘lib ko‘rasiz. Odamlarni his-tuyg‘ularini tushunishni boshlaysiz.

Albatta, zamonaviy texnologiyalar orqali ham bilim olish imkoniyati mavjud. Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn ma‘lumotlar bugungi kunda juda qulay vositalarga aylanmoqda. Biroq, ular kitob o‘qishning o‘rnini to‘liq bosolmaydi. Chunki mutolaa jarayonida inson tafakkurini mustahkamlovchi, tasavvurini boyituvchi jarayonlar sodir bo‘ladi. O‘qigan kitoblar orqali inson hayot tajribasini oshiradi va kelajakda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rganadi.

Shunday ekan, texnologiya rivojlangan zamonda ham kitob o‘qish o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Balki aksincha, u inson tafakkuri va ma‘naviy yuksalishi uchun yana-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatni bilimli va madaniyatli qilish uchun kitob o‘qish madaniyatini targ‘ib etish juda muhim. Ushbu maqolada aynan shu masala tahlil qilinadik va kitob o‘qishning bugungi kundagi ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladik.

ASOSIY QISM

1. Kitob o‘qish tafakkurni rivojlantiradi

Kitob inson tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qish jarayonida inson miyasida axborotni qabul qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayoni sodir bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kitoblar insonning tasavvur doirasini kengaytiradi va ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Boshqalarni aqlli fikrlarini o‘qir ekansiz, sizning ham aqlli fikrlaringiz uyg‘onadi.

2. Kitob o‘qish inson ruhiyatiga ijobiy ta‘sir qiladi

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish insonni tinchlantiradi, stressni kamaytiradi va hissiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotlar insonning empatiya hissini rivojlantiradi, uning atrofdagilarni yaxshi tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, kitob mutolaasi orqali inson turli xil hayotiy vaziyatlarni o‘rganib, ularga qanday munosabat bildirishni bilib oladi.

3. Kitob mutolaasi so‘z boyligini oshiradi va nutq madaniyatini shakllantiradi

Kitob o‘qigan inson yangi so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirib, o‘z nutqini yanada boyitadi. Bu esa uning og‘zaki va yozma nutqining aniq, lo‘nda va ta‘sirli bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar uchun kitob o‘qish juda muhim, chunki ularning fikrlash qobiliyatini, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi. Hozirgi kunda ko‘pchilik o‘z fikrini ravon bayon etolmaydi. Buning sababi sifatida kitob o‘qimaslikni olsak bo‘ladi.

4. Kitob va zamonaviy texnologiyalar: raqobat yoki hamkorlik?

Bugungi kunda elektron kitoblar, audiokitoblar va qisqacha ma‘lumot beruvchi maqolalar ommalashgan bo‘lsa-da, ular an‘anaviy kitoblarning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Internet tezkor axborot yetkazib bersa-da, undagi ma‘lumotlar yuzaki bo‘lishi mumkin. Kitoblar esa chuqur bilim olish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy texnologiyalar kitob mutolaasini to‘ldiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

5. Kitob o‘qish kelajak avlod uchun ahamiyatli

Kitob o‘qish madaniyatining shakllanishi jamiyatning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob o‘qishning yosh avlodga o‘rgatilishi, ular orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun oilada, maktabda va jamiyatda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Kitob o‘qishning afzalliklari: Kitob o‘qish insonning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun beqiyos vosita hisoblanadi. Dunyoning yetakchi olimlari va psixologlari kitob o‘qishning inson miyasi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Tadqiqotlarga ko‘ra, muntazam kitob o‘qish inson xotirasini mustahkamlab, keksayish jarayonida ham aqliy faoliyatini faol saqlab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga, kitoblar orqali inson mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarni hal qilish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Va yangi ko‘nikmallarni ham o‘rganadi.

Bundan tashqari, kitob o‘qish so‘z boyligini oshirib, nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Mutolaa jarayonida o‘quvchi turli janrlardagi kitoblarni o‘qib, yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi. Bu esa uning kundalik muloqotda, yozma nutqda hamda jamoat oldida chiqish qilishda o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalashiga yordam beradi.

Kitob mutolaasining inson tafakkuriga ta’siri: Kitoblar inson tafakkurini kengaytirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, falsafiy va ilmiy asarlar insonni o‘ylashga, turli nazariyalarni taqqoslashga, fikrlash doirasini kengaytirishga undaydi. Tarixiy kitoblar esa insoniyatning o‘tmishini tushunishga va unda xulosa chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish bilan shug‘ullanuvchi insonlar yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtiradi, hayotiy muammolarni hal qilishda yanada kreativ va moslashuvchan bo‘ladi. Ayniqsa, muntazam ravishda badiiy yoki ilmiy kitoblarni mutolaa qilish inson ongida uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bunday odamlar yoshi keksayganda ham aqliy qobiliyatini yo‘qitishmaydi.

Kitob o‘qishning inson ruhiyatiga ta’siri: Kitob o‘qish stressni kamaytirish va inson ruhiy holatini barqarorlashtirishda ham katta rol o‘ynaydi. Buyuk Britaniyaning Sussex universiteti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, atigi olti daqiqa davomida kitob o‘qish insonning stress darajasini 68 foizga kamaytirishi mumkin. Kitob o‘qish jarayonida odam muammolarini unutib, boshqacha dunyoga sho‘ng‘iydi, bu esa uning psixologik holatini yaxshilaydi.

Bundan tashqari, kitoblar insonda hamdardlik va tushunish qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyotlar orqali inson boshqa insonlarning hayotiy tajribasini his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa unga jamiyat bilan muomala qilishda yordam beradi. Ruhshunoslarning fikricha, muntazam kitob o‘qish insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va hayotga ijobiy munosabatda bo‘lishga undaydi. Odamlar 60 yillik hayotiy tajribalarini yeg‘ib bir kitob yozishadi, siz esa 6 soat vaqt sariflab 60 yillik tajribaga ega bo‘lasiz. Mana nega kitob o‘quvchi odamlar televizor ko‘ruvchi odamlarda ustun bo‘lishadi.

Zamonaviy texnologiyalar va kitob o‘qish o‘rtasidagi bog‘liqlik: Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlanib, axborot olish usullari o‘zgarib bormoqda. Internet orqali tezkor ma’lumot olish imkoniyati ko‘pchilikni kitob o‘qish odatidan uzoqlashtirmoqda. Biroq, internetdagi qisqa maqolalar, bloglar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi postlar kitobning o‘rnini bosa olmaydi. Kitob o‘qishning asosiy afzalligi shundaki, u insonni chuqur tahlil qilishga, bir mavzuni to‘liq anglab yetishga va tafakkurini shakllantirishga undaydi.

Shuningdek, elektron kitoblar va audiokitoblarning paydo bo‘lishi mutolaa jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Ko‘pchilik zamonaviy insonlar band bo‘lishiga qaramay, audiokitoblar orqali bilim olish imkoniyatidan foydalanmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalar rivojlanayotgan bo‘lsa ham, kitob o‘qish madaniyati yo‘qolib ketmaydi, balki yangi shakllarga moslashmoqda.

Kelajak avlod uchun kitob o‘qishning ahamiyati: Yosh avlodning intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun kitob o‘qish muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalik davrida ko‘p kitob o‘qigan insonlar kattaligida bilimlarni tezroq o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, oilada kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga kitob o‘qishning foydasi haqida gapirib, ularga o‘zlari ibrat bo‘lishi kerak. Aynan o‘zlari ularga namuna bo‘lishlari lozim.

Bundan tashqari, maktab va oliy ta’lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar orasida kitob mutolaasi targ‘ib qilinsa, ular kelajakda yetuk mutaxassis va bilimdon insonlar bo‘lib shakllanadi. Shu sababli, jamiyatda kitob o‘qishning ahamiyatini oshirish uchun turli loyihalar, kitobxonlik festivallari va tanlovlar tashkil etilishi lozim. Va tashkil etib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Kitob o‘qishning foydalari: Aniq.uz
2. Kitob O‘qishning 21 foydasi haqida: www.kh-davron.uz
3. <https://www.youtube.com/@NurliMedia>
4. <https://www.youtube.com/@DAVRONBEKTURDIEV>